

**EPIXLORGIDRIN VA ANILIN ASOSIDAGI ION ALMASHINUV  
SMOLALARINI MODIFIKATSIYALAB ION ALMASHINUV  
MEMBRANA SINTEZI**

***Mirzayeva Gulasal Ergashovna***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*“Xorijiy til va adabiyoti” kafedrasи katta o’qituvchisi*  
[mirzaevagulasal3@gmail.com](mailto:mirzaevagulasal3@gmail.com)

***Bozorova Mehriniso Sherali qizi***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti*

*Ingliz tili yo’nalishi I-bosqich talabasi*  
[bozorovamehriniso18@gmail.com](mailto:bozorovamehriniso18@gmail.com)

**Annotatsiya** - Ushbu tadqiqot ishida epixlorgidrin(EPX) , anilin(AN), aminobenzoy kislota(ABK) va polietilenpoliamin(PEPA)lar asosida ion almashinuv membranasi sintezi bo'yicha tadqiqot olib borildi. Bunda dastlab epixlorgidrin anilin bilan reaksiyaga kiritilib diglisidilanilin(DGL) ion almashinuv smolasasi sintez qilindi. So'ng hosil bo'lgan (DGL) ion almashinuv smolasasi va (ABK) ishtrokida imobillanib diglisidilanilinamibenzoy (DGAMB) ion almashinuv membranasi sintez qilindi. Sintez qilingan DGAMB tarkibi infraqizil spektr IR-spektr tahlili asosida aniqlandi va ularning ma'lumotlari taqdim etildi.

**Kalit so'zlar:** Epixlorgidrin, anilin, polietilenpoliamin, ion almashinuv membranalari, aminobenzoy kislota.

**Annotation:** This research focuses on the synthesis of an ion-exchange membrane based on epichlorohydrin (EPX), aniline (AN), aminobenzoic acid (ABA), and polyethylene polyamines (PEPA). Initially, epichlorohydrin was reacted with aniline to synthesize diglycidylaniline (DGL) ion-exchange resin. Then, the obtained (DGL) ion-exchange resin was immobilized in the presence of (ABA) to synthesize the diglycidylaniline aminobenzoic (DGAMB) ion-exchange membrane. The composition of the synthesized DGAMB was determined using infrared (IR) spectroscopy analysis, and the obtained data were presented.

**Keywords:** Epichlorohydrin, aniline, polyethylene polyamine, ion-exchange membranes, aminobenzoic acid.

**Аннотация :** В данном исследовании рассматривается синтез ионно-обменной мембраны на основе эпихлоргидрина (EPX), анилина (AN), аминобензойной кислоты (АБК) и полиэтиленполиаминов (ПЕПА). Сначала эпихлоргидрин подвергался реакции с анилином с получением диглицидиланиновой (DGL) ионно-обменной смолы. Затем полученная (DGL) ионно-обменная смола иммобилизовалась в присутствии (АБК) для

синтеза диглицидиламиноаминобензойной (DGAMB) ионно-обменной мембранны. Состав синтезированной DGAMB определялся методом инфракрасной (IR) спектроскопии, и представленные данные были проанализированы.

**Ключевые слова:** эпихлоргидрин, анилин, полиэтиленполиамин, ионно-обменные мембранны, аминобензойная кислота.


**1. Kirish.** Hozirgi davrda ichimlik va ishlab chiqarish sohalari uchun qo'llaniladigan suvlarni turli xil tuzlar eritmalari, organik yoqilg'imoylari va kislota qoldiqlaridan tozalab qayta foydalanishga joriy qilish eng talab yuqori bo'lgan global ekologik muommolardan biridir[1]. Ichimlik va ikkilamchi oqava suvlarni zaruriy darajada tozlash va ishlab chiqarish uchun filtratsiya va ion almashinuv jarayonlarini amalgaga oshirishda membranalar sohasi yetakchilik qilmoqda[2]. Epixlorgidrin asosidagi ion almashinuv membranalarining turli xil sopolimerlari yuqori ion almashinuv qobilyatlarini berib sanoat sohasida uzoq vaqtlardan biyon foydalanilib kelinmoqda[3]. EPX va aminlar asosidagi ion alamshinuv membranalari seliktiv va ishlab chiqarish qulay bo'lgan maxsulotlar bo'lib ularning turli xil ion almashinuv smolalariga ishlov berish qulayliliqi tufayli modifikatsiyalangan membranalar sintezida ham qo'llanilib kelinmoqda[4]. EPXning epoksi guruhi va xlorli birikmalari bo'lganligi uchun uning kompazissalari turli xil dializ sohalarida qo'llanilmoqda ammo hali ham ochilmagan imkoniyatlari mavjuddir.[5]. Asosan EPXning AN bilan qilgan birikmalari yuqori ion va elektron o'tkazuvchanlik xossalari namoyon qiladi. Bunga sabab anilin polimerlarining yuqori elektron o'tkazuvchanlik xossalidir. Turli xil polimerlarni anilin bilan modifikatsiyalab ularning o'tkazuvchanlik hossalari oshirish asosida ion almashinuv mebranalari xosil qilingan va elektrodializ jarayonlari uchun tijoratlashtruvchi membranalar olingan[6]. Epixlorgidrin va anilin asosida o'gir metallar ionlarini ajratishda qo'llaniluvchi ionitlar olinib ularning granulalarini maxsus matrissaga kiritish asosida ion almashinuvchan membranlar sintez qilingan[7]. Biz ham bu borada epixlorgidrin asosidagi modifikatsiyalangan ion alamshinuv membranalarini olish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib bordik.

## **2.Eksperimental qism.**

### **2.1 DGAMB ion alamshinuv membranasi sintezi**


Dastlab olovbardosh kolba magnitli mishalkaga qo'yildi va ustidan qaytarma sovitkichli xaladenlik joylashtrildi. So'ng 11 g An kolbaga qo'yilib 30 °C arlashtirildi va ustidan 115 g distillangan suv quyildi. Keyingi bosqichda harorat 60-65 °C ga ko'tarildi va 37 g EPX qo'shildi. So'ng maxsulotiga yana 41 % ishqor eritmasi oz ozdan qo'shildi. Keyingi bosqichda hosil bo'lgan kondensatsiya maxsuloti karbanat gazi bilan ishlov berildi. Hosil bo'lgan maxsulotga ABK va PEPA eritmasi qoshildi. So'ng xaroroat 55-65 °C ga ko'tarildi va imobilangan ionit xosil bo'ldi hamda uni

yuvib 45-50 °Cda quritib maxsulot olindi. Sintez qilingan ion almashinuv membrana maxsuloti reaksiya sixemasi 1-rasmida keltrildi.



**1-rasm. DGAMB ion alamshinuv membranasi sintezi reaksiya sxemasi.**

Bu reaksiyadan ko'rinish turibdiki aromatikaminli birikmalar va EPX bog'lanishlar polikondensatsiyasi ion almashinuvchi membranalar sintezi sohasida istiqbollidir. Hosil bo'lgan membranamizda reaksiyada ko'rsatilgan funsional guruhlarning mavjudligi uning faolligini oshiradi.



**2-rasm. DGAMB ion alamshinuv membranasi IK-spektri.**

**2-rasimdagi** qiymatlarda  $1597,06\text{ sm}^{-1}$  sohada ar( $C_6H_6$ ) guruhining xalqa tebranishlari kuzatiladi,  $1458,18\text{ sm}^{-1}$  soha oralig‘ida  $CH_2$ -bog‘ining valent tebranishlari,  $1230,58\text{ sm}^{-1}$  sohada oralig‘ida  $-C-N<$  bog‘larining valent tebranishlari,  $1193,94\text{ sm}^{-1}$  soha oralig‘ida  $C-OH$ -bog‘ining valent tebranishlari,  $1033,07\text{ sm}^{-1}$  sohada  $-C=O$  bog‘larining valent tebranishlariga mosligi kuzatildi.

Quyidagi spektordan ko‘rinib turibdiki diglisidilaminning aminobenzoy kislotasi bilan hosil qilgan sopolimerini sintez qilish anilin va mahalliy homashyolardan olingan epixlorgidrinning ion almashinuvchi smolasi asosida optimal sharoitda yuqori unumda hosil qilish mumkin.

### Xulosa

Ushbu tadqiqot natijasida epixlorgidrin, anilin, aminobenzoy kislota va polietilenpoliamin asosida ion almashinuv membranasi muvaffaqiyatli sintez qilindi. Dastlab epixlorgidrin va anilin reaksiyasidan diglisidilanilin (DGL) ion almashinuv smolasi hosil qilindi. Keyinchalik ushu smola aminobenzoy kislota ishtirokida imobillanib, diglisidilanilinamibenzoy (DGAMB) ion almashinuv membranasiga aylantirildi. Sintez qilingan DGAMB membranasining tarkibi infraqizil (IR) spektr tahlili yordamida tasdiqlandi va olingan natijalar taqdim etildi. Ushbu tadqiqot ion almashinuv membranalarini yaratish bo‘yicha ilmiy asoslarni mustahkamlashga va ularning kelajakdagi qo‘llanilishiga hissa qo‘shishi mumkin.

### Adabiyotlar:

1. J. Ran et al., “Ion exchange membranes: New developments and applications,” *Journal of Membrane Science*, vol. 522, pp. 267–291, 2017, doi: 10.1016/j.memsci.2016.09.033.
2. Alabi, A. AlHajaj, L. Cseri, G. Szekely, P. Budd, and L. Zou, “Review of nanomaterials-assisted ion exchange membranes for electromembrane desalination,” *npj Clean Water*, vol. 1, no. 1, 2018, doi: 10.1038/s41545-018-0009-7
3. Y. Sh, X. X. Turaev, R. V. Alikulov, A. T. Jalilov, and O. M. B, “GOSPODARKA I INNOWACJE Volume : 39 | 2023 Economy and Innovation ISSN : 2545-0573 SYNTHESIS AND ANALYSIS OF NITROCELLULOSE MEMBRANE BASED ON LOCAL RAW MATERIALS .,” pp. 50–54, 2023.L.
4. G. Nie, X. Li, J. Tao, W. Wu, and S. Liao, “Alkali resistant cross-linked poly(arylene ether sulfone)s membranes containing aromatic side-chain quaternary ammonium groups,” *Journal of Membrane Science*, vol. 474, pp. 187–195, 2015, doi: 10.1016/j.memsci.2014.09.053.
5. Y.Sh. Bozorov, Kh.Kh.Turaev, A.H. Toshkulov, et al. "Synthesis of a New Ion Exchange Membrane based on Aniline and Nitrocellulose," *International Journal of Engineering Trends and Technology*, vol. 72, no. 12, pp. 116-129, 2024. Crossref, <https://doi.org/10.14445/22315381/IJETT-V72I12P111>
6. Li, M. I. Baig, W. M. De Vos, and S. Lindhoud, “Preparation of Sodium Carboxymethyl Cellulose – Chitosan Complex Membranes through Sustainable Aqueous Phase Separation,” 2023, doi: 10.1021/acsapm.2c01901
7. . Y. Tang, L. Xing, and P. Wang, “Preparation of a Hydrophilic Nitrocellulose Membrane,” *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, vol. 677, no. 2, 2019, doi: 10.1088/1757-899X/677/2/022035.